

O'zbekiston-Xitoy: ilmiy hamkorlik kengaymoqda

Joriy yil aprel oyi boshida Shimoliy g'arbiy universitet (XXR) rahbariyatining taklifiga binoan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologik tadqiqotlar institutining direktori F.A.Maksudov, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti direktori, akademik K.Sh.Tojibayev va Yadro fizikasi instituti direktori o'rinbosari I.I.Sodiqov va Umumiy va noorganik kimyo instituti direktori B.S.Zakirovlar Xitoy Xalq Respublikasiga tashrif buyurdi.



Ushbu tashrif 2019-yil fevral oyida Toshkent shahrida Fanlar akademiyasi va Shimoliy g'arbiy universitet (XXR) vakillarining ikki o'rtada ilmiy hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan uchrashuvining davomi hisoblanadi. Tashrif chog'ida O'zbekiston delegatsiyasi Xitoy Xalq Respublikasi Shimoli-g'arbiy universiteti rahbariyati bilan O'zbekiston -Xitoy ilmiy madaniy aloqalarni rivojlantirish, arxeologik tadqiqotlarni umumjahon darajasiga ko'tarish va yurtimizda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash borasida o'zaro manfaatli loyihalarni muhokama qilishdi. Xususan, arxeologik qazishmalar jarayonida aniqlangan topilmalarni geoarxeologiya, paleozoologiya, paleobotanka kabi yo'nalishlar asosida tahlil qilish va shu asosda aniq ilmiy natijalar qo'lga kiritish imkonini beruvchi O'zR FA Arxeologik tadqiqotlar instituti qoshida tashkil etilishi rejalashtirilayotgan "Tabiiy fanlar va Ipak yo'li sivilizatsiyalari" O'zbekiston-Xitoy xalqaro laboratoriyasini zamonaviy asbob uskunlar bilan jihozlash masalalarida kelishib olindi.

